



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI

ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA MADANIYATLARARO MUNOSABATLAR UYG'UNLIGI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI



2026-yil, 15-may

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI

**“ZAMONAVIY TA‘LIM MUHITIDA MADANIYATLARARO MUNOSABATLAR
UYG‘UNLIGI VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI”**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI
(2026 yil 15 may)

Buxoro - 2026

“Zamonaviy ta’lim muhitida madaniyatlararo munosabatlar uyg’unligi va taraqqiyot tendensiyalari” mavzusidagi // xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Buxoro: “DURDONA” nashriyoti, 2026. 542 bet

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida Respublikamiz, Rossiya, Yaponiya hamda Turkiyalik olimlar, soha mutaxassislari, ilmiy tadqiqodchilar, magisrtlar, talabalarning ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

Ilmiy anjumanning dasturiy qo‘mitasi

1.	B.B.Ma'murov	–	Instituti rektori, p.f.d., professor, rais;
2.	N.Safarova	-	Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar prorektori, dotsent hamrais;
3.	D.K. Mamatov	–	BuxDPI ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo‘lim boshlig‘i, p.f.d (DSc), professor rais o‘rinbosari.
4.	N.Dj. Yadgarov	–	Buxoro davlat pedagogika instituti pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani professor, p.f.d. (DSc) a‘zo;
5.	G.T.Boymurodova	–	BuxDu professori, p.f.d. (DSc) a‘zo;
6.	G.R.Akramova	–	BuxDu professori, p.f.d. (DSc) a‘zo;
7.	B.J.Umarov	–	BuxDPI professori, p.f.f.d. (PhD), a‘zo;
8.	Q.F.Abdullayev	–	BuxDPI dotsenti, a‘zo;
9.	N.T.Tosheva	–	BuxDu professori, p.f.f.d. a‘zo;
10.	A.T.Gulboyev	–	BuxDPI dotsenti, p.f.n., a‘zo;
11.	G.V.Izbullayeva	–	BuxDPI professori, p.f.d. (DSc) a‘zo;;
12.	A.N.Nusratov	–	BuxDPI professori, p.f.f.d. (PhD), a‘zo;
13.	O‘U.Qurbonova	–	BuxDPI dotsenti, p.f.f.d. (PhD), a‘zo;
14.	D.I.Tosheva	–	BuxDPI dotsenti, p.f.f.d. (PhD), a‘zo;

Mas’ul muharrir:

G.T.Boymurodova - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Taqrizchi:

Sh.SH.Olimov - pedagogika fanlari doktori, professor

G.V.Izbullayeva - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

To‘plovchi va nashga tayyorlovchi:

L. Jo‘rayeva

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, yosh avlodni zamonaviy bilim va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni hamda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda zamonaviy va raqobatbardosh ta’lim muhitini shakllantirishda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, ta’lim tizimida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, pedagogik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, madaniyatlararo munosabatlarni rivojlantirish va ilmiy salohiyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-sonli buyrug‘i 1-ilovasiga muvofiq Buxoro davlat pedagogika instituti “Umumiy pedagogika” kafedrasi tomonidan 2026-yil 15-may kuni “Zamonaviy ta’lim muhitida madaniyatlararo munosabatlar uyg’unligi va taraqqiyot tendensiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni o‘tkazildi. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjuman zamonaviy ta’lim

ривожланади. Ўқув фаолияти инсон янги билимлар, кўникма ёки малакалар эгаллайдиган ёки мавжудларни ўзгартирадиган, ўз қобилиятларини ривожлантирадиган, такомиллаштирадиган жараёндир. Ўқув фаолити шундай фаолиятки, унда шахснинг психик жараёнлари шаклланади ва ривожланади, унинг асосида фаолиятлар вужудга келади. Ўқув фаолияти инсоннинг бутун ҳаёти давомида намоён бўладиган узлуксиз жараёндир.

Бу йўл орқали ўқувчиларда идрок этиш хусусиятлари ҳам ривожланади. Идрок – сезги органларига бевосита таъсир этиб турган нарса ва ҳодисаларнинг киши онгида бутунлигича акс этишидир. Ўқитувчи томонидан бирон мақсадни кўзлаган ҳолда ўқувчилар фаолитининг раҳбарлик қилиш жараёнида ўқувчиларнинг идроки ривожланади. Шунинг учун дарсда идрок ва кузатишнинг тўғри уюштирилиши катта аҳамиятга эга. Таълим жараёнида кузатишларни фаоллаштириш учун ўқувчини кузатилган ва идрок қилинган нарсаларини кейин гапириб бериш кераклиги тўғрисида огоҳлантиришнинг аҳамияти каттадир. Агар ўқувчи нимани кузатганда ва идрок қилганлиги ҳақида кейинчалик ҳисоб бериши лозим Таълим жараёни, таълим жараёни даврлари млигини олдиндан билса, у кузатиш ва идрок этиш жараёнида анча фаол бўлади.

Бу усул орқали ўқувчиларнинг хотирасини ривожлантиришда ижобий аҳамиятга эга. Хотира бу- доимий ва ўзгарувчан ҳолда сақланган маълумотларни ўзгаришидир. Хотира соҳасида қўйидаги асосий жараёнлар, эсда олиб қолиш, эсда сақлаш, эсга тушуриш ва унутиш бир – биридан фарқ қилади.

Юқоридагилардан қўйидагича хулосалар чиқариш мумкин. Таълим жараёни даврларига мос дарс ўтишда ўқувчилар турли хил психологик ривожланиш хусусиятларига эга бўладилар. Тажрибали ва моҳир ўқитувчилар таълим бериш жараёнида ўқувчилардаги қобилиятни, идрокни, тафаккурни, хотирани, фаолиятини аниқ илғай оладилар ва шу аснода таълимни тўғри ташкил қила оладилар ва бошқара оладилар. Ҳозирги вақтда таълимни бошқариш долзарб муаммолардандир. Ўқитувчини моҳирона юқоридагиларга риоя қилган ҳолда дарс ўтиши таълимда кафолатланган натижага олиб келади. Таълимда кафолатланган натижа янги педагогик технологиянинг энг илғор мақсади. Яна шунингдек, ўқувчиларнинг ижодий фикрлашининг ривожланиши мактаб она тили курсини ўрганишда аниқ мақсадга йўналганлик (ўқитувчидамашғулот, мавзу, бўлим мақсадини қўйиш, мақсадни табақалаштириш, аниқлаштириш ва интеграциялаш, дарс мақсадларини ажратиш, ўқувчилар фаолиятини такомиллаштиришга ижодий ёндашиш) бўлади, мазмунни ва ўқитиш мақсадларини мувофиқлаштириш, таълим мазмунини моделлаштириш, ўқув жараёнини мақсадларига ва мазмунига мос ўқитиш методлари мажмуини танлаш уқувларини, ўқув топшириқларини танланади, ўқув фанини ўрганишда машғулоти лойиҳасини ишлаб чиқишга қизиқиш ва мотивация асосида юзага келадиган мотивацияли – аҳамиятли йўналганлик, шунингдек, ишлаб чиқилган машғулоти лойиҳаларини амалиётга жорий этиш имкониятини беради.

АДАБИЁТЛАР.

1. Розиков. О, Махмудов. М . “ О циклах процесса обучения.” Педагогик Маҳорат. 2002 й 2-сон. 12-19 б.
2. Нишанова. З.Т бошқалар. Ривожланиш психологияси. Педагогик психология. “Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти.” нашриёти. Т. 2018 й. 471-б.
3. Шамшетова. А К ва бошқалар. Умумий психология. Т. Баркамол авлод файз медиа. 2018. 64-65 б.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA LOYIHAVIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Haydarqulova Mahliyo Zafarovna
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktranti
+998 93 624 04 07*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida loyihaviy topshiriqlardan foydalanishning nazariy asoslari, pedagogik ahamiyati hamda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada boshlang'ich sinflarda foydalaniladigan loyihaviy topshiriqlarga na'munalar keltirilgan va loyiha asosida o'qitishning samaradorligi va amaliy jihatlari tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, loyihaviy topshiriq, kompetensiya, innovatsion metodlar, mustaqil fikrlash, ta'lim samaradorligi.

THE IMPORTANCE OF USING PROJECT-BASED ASSIGNMENTS IN PRIMARY EDUCATION

Haydarqulova Mahliyo Zafarovna
Doctoral Student, Bukhara State Pedagogical Institute
+998 93 624 04 07

Abstract: This article discusses the theoretical foundations and pedagogical significance of using project-based assignments in the primary education process, as well as their role in developing students' knowledge, skills, and competencies. The article provides examples of project-based assignments used in primary grades and analyzes the effectiveness and practical aspects of project-based learning.

Keywords: primary education, project-based assignment, competency, innovative methods, independent thinking, educational effectiveness.

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОЕКТНЫХ ЗАДАНИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Хайдаркулова Махлиё Зафаровна

Базовый докторант Бухарского государственного педагогического института

+998 93 624 04 07

Аннотация: В данной статье освещаются теоретические основы и педагогическое значение использования проектных заданий в процессе начального образования, а также их роль в развитии знаний, умений и компетенций учащихся. В статье приведены примеры проектных заданий, применяемых в начальных классах, и проанализированы эффективность и практические аспекты проектного обучения.

Ключевые слова: начальное образование, проектное задание, компетенция, инновационные методы, самостоятельное мышление, эффективность образования.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda amaliy ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan loyihaviy topshiriqlardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda tafakkur, tasavvur va o'rganish malakalarining shakllanish davridir. Shu sababli o'qituvchi darslarni rejalashtirishda loyihaviy yondashuvni qo'llay olsa, o'quvchilarning bilish faoliyati ancha faol bo'ladi. Loyihalash metodi ta'lim texnologiyasining muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Bu metod ta'lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. Loyihalash (lot. rojectus - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), nomini o'zi aytib turibdiki, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, proekt ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir.

Boshlang'ich sinflarda loyihaviy topshiriqlardan foydalanish — zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish, ularning bilimni chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Loyihaviy topshiriq — bu o'quvchilar tomonidan muayyan muammo yoki mavzu asosida mustaqil yoki guruhda bajariladigan amaliy ish bo'lib, yakunda aniq natija (prezentatsiya, maket, rasm, loyiha himoyasi va boshqalar) bilan yakunlanadi. Loyihaviy topshiriqlar o'quvchilarning bilimlarini amaliyot bilan bog'lash, ularni izlanishga undash va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. U o'quvchilardan izlanish, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda interaktiv metodlarni qo'llash muhimdir. Loyihaviy topshiriqlar o'quvchilarda darsga qiziqishini oshirishga, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, jamoada ishlash ko'nikmasini shakllantirishga, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishga yordam beradi. Bundan tashqari, loyiha asosida o'qitish o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik jihatdan faol, qiziquvchan va o'rganishga moyil bo'ladi. Shu sababli ularni dars jarayoniga jalb qilishda interaktiv va amaliy metodlar muhim rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinflarda quyidagi loyihaviy topshiriqlarni qo'llash mumkin:

Ona tili va o'qish darslarida. 1-topshiriq: "Ertak yaratamiz" loyihasi. Bunda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi va har bir guruh yangi ertak o'ylab topadi. Ertakda ishtirok etgan qahramonlar, voqea joyi va yakuniy xulosa aks ettirilgan rasm chizib, sinfda taqdimot qilinadi. Natijada o'quvchilarda matn tuzish ko'nikmasi va ijodiy fikrlash shakllanadi.

2-topshiriq: "Qahramonga tavsif beramiz" loyihasi. Darslikdagi hikoya qahramoni tanlanadi va o'quvchilar uning xulq-atvori, fazilatlarini yozadi. "Agar men shu qahramon o'rnida bo'lsam..." mavzusida fikr mulohazalar aks ettiriladi va o'qib eshittiriladi. Natijada esa o'quvchilarda tahliliy fikrlash va nutq madaniyati oshadi.

3-topshiriq: "Kitob tavsiya qilaman" loyihasi. O'qilgan asarlarni tahlil qilish maqsadida o'tkaziladi. Har bir o'quvchi o'zi o'qigan kitobni tanlaydi va qisqacha mazmun yozadi. Nima

uchun bu kitobni tavsiya qilishini tushuntiradi. Bu orqali sinfda “mini kutubxona” tashkil etiladi. O‘quvchilarda mustaqil o‘qish malakasi, tanqidiy fikrlash shakllanadi.

Matematika darslarida. 1-topshiriq: “Do‘kon ochamiz” loyihasi. Bu loyihada sinfda o‘quvchilar sun‘iy “do‘kon” tashkil qiladi va narxlar belgilanadi (masalan: non – 3000 so‘m, olma – 5000 so‘m). O‘quvchilar sotuvchi va xaridor vazifalarini bajaradilar. Xarid va hisob-kitob ishlari bajariladi. Bu loyiha asosida o‘quvchilarda amaliy hisoblash ko‘nikmasi rivojlanadi, pul bilan ishlashni va dastlabki iqtisodiy malakalar o‘rganadi.

2-topshiriq: “Mening haftalik jadvalim” loyihasi. Bu loyiha o‘quvchilarda vaqt birliklari mavzusini mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi. O‘quvchilarga bir haftalik kun tartibini tuzish vazifasi beriladi. Har bir faoliyat vaqtini soatlarda ifodalash va uni diagramma yoki jadvallarda ko‘rsatish vazifasi beriladi. Natijada

vaqtni boshqarish ko‘nikmasi va matematik tushunchalar mustahkamlanadi.

3-topshiriq: “Geometrik shakllar shahri” loyihasi. Geometrik shakllar mavzusini mustahkamlash va geometrik shakllarning kundalik hayotdagi ahamiyatini o‘rgatishda foydalaniladi. O‘quvchilar turli shakllardan (kvadrat, doira, uchburchak) shahar maketi yasaydi. Har bir shakl nomlanadi va tavsiflanadi. Natijada o‘quvchilarda fazoviy tasavvur rivojlanadi va geometrik bilimlar mustahkamlanadi.

Tabiiy fan darslarida. 1-topshiriq: “O‘simlikni kuzatamiz” loyihasi. Bu loyiha o‘simliklar hayoti haqidagi mavzularda o‘tkaziladi. Loyihada o‘quvchi urug‘ ekadi (loviya, bug‘doy) va har kuni o‘sishini kuzatadi. Rasmlar yoki yozuvlar bilan kundalik yuritadi. Natijada o‘quvchilarda kuzatuvchanlik rivojlanadi va tabiatga mehr shakllanadi.

2-topshiriq: “Toza muhit” loyihasi. Ekologiya mavzusida o‘tkaziladi. Sinf yoki maktab hududida tozalik aksiyasi o‘tkaziladi. Bu jarayonda o‘quvchilar guruh bilan atrofni tozalaydilar, chiqindilar turlarga ajratadilar, atrofda tozalik muhitini yaratadilar. Bu o‘quvchilarda ekologik madaniyat rivojlantirish va jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

3-topshiriq: “Ob-havo kundaligi” loyihasi. Bu loyihada 7–10 kun davomida harorat, shamol, yog‘ingarchilik kuzatiladi va natijalar jadvalga yoziladi. Ob-havo o‘zgarishi tahlil qilinadi. Ayniqsa fasllar almashinuvi davrida bunday loyihalardan foydalanish ob-havodagi keskin o‘zgarishlarni ko‘rish imkonini beradi. Bu loyiha asosida tahlil qilish ko‘nikmasi ilmiy kuzatuv malakasi shakllanadi

Loyiha asosida o‘qitish quyidagi pedagogik natijalarni ta‘minlaydi:

- Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi – o‘quvchi tayyor bilimni emas, balki uni izlab topishni o‘rganadi.

- Ijodkorlikni oshiradi – yangi g‘oyalar ishlab chiqish jarayoni kuchayadi.

- Kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantiradi – o‘z fikrini bayon qilish va himoya qilishni o‘rganadi.

- Mas‘uliyat hissini oshiradi – o‘z ishiga javobgarlik paydo bo‘ladi.

- Fanlararo integratsiyani ta‘minlaydi – turli fanlar o‘rtasida bog‘liqlik yuzaga keladi.

Darsliklar asosida tashkil etilgan loyihaviy topshiriqlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, bilimlarni mustahkamlaydi va ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘limda bu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bu topshiriqlar o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash bilan birga ularni ijodiy ishlashga undaydi.

Loyihaviy yondashuv o‘qituvchilarning dars jarayoniga ijodkorlik bilan yondashishiga, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, loyihalash metodini o‘zlashtirgan o‘qituvchilar ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan keng foydalanib, o‘quvchilarda fanlararo aloqadorlikni shakllantirish, muammoli vaziyatlarni yechishga yo‘naltirilgan topshiriqlar tuzish va o‘quvchilarning shaxsiy faoliyatini tashkil etishda yuqori natijalarga erishadilar.

Loyihaviy ta‘limda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi. U o‘quvchilarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, lekin tayyor yechim bermaydi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga imkon yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda loyihaviy topshiriqlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. U o'quvchilarning bilimini mustahkamlash bilan birga, ularning shaxsiy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim jarayonida loyihaviy yondashuvni keng qo'llash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-6108-son qarori. — 2020 yil.
2. To'raqulova M. Boshlang'ich ta'limda loyihaviy yondashuvni amalga oshirish metodikasi. – Toshkent, 2021.
3. Hasanov O. Loyihaviy o'qitish metodining afzalliklari. – "Pedagogik mahorat" ilmiy jurnali, №1, 2023.
4. Haydarqulova M.Z. Boshlang'ich sinflarda darslarni loyihalash ta'lim tamoyili asosida tashkil etish// Pedagogik mahorat.-Buxoro, 2024,- №10. -162-167.
5. Haydarqulova M.Z. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini loyihaviy yondashuv va loyihalash metodidan foydalanishga o'rgatish// Pedagogik mahorat. -Buxoro, 2025,- №11, 16-19.
6. Haydarqulova M.Z. Boshlang'ich sinf darsliklarida loyihalashga doir topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati// "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari: 5E modeli, yangi avlod darsliklari va xorijiy tajribalar" respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Buxoro, 2025-yil, 21-noyabr, 26-28.

KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA XORIJIY TIL O'QITISHDA DIDAKTIK JARAYONNI MODERNIZATSIYA QILISH.

*Qodirova Nilufarxon Zokir qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
I-bosqich tayanch doktoranti.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyati hamda uning xorijiy til o'qitish jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim paradigmalari asosida didaktik jarayonni modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritiladi. Shuningdek, o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llash ko'nikmalarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada xalqaro standartlar, xususan Common European Framework of Reference for Languages asosida til o'qitishni tashkil etishning samarali usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, xorijiy til o'qitish, didaktik jarayon, modernizatsiya, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, CEFR, ta'lim paradigmasi

Bugungi globalashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganish nafaqat ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi, balki shaxsning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois xorijiy til o'qitish metodikasini takomillashtirish, uni zamonaviy talablar asosida tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. An'anaviy bilim berishga yo'naltirilgan yondashuvlar o'rnini bugungi kunda kompetensiyaga asoslangan ta'lim egallamoqda. Ushbu yondashuv o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularni amaliyotda qo'llash qobiliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xorijiy til o'qitishda bu yondashuvning ahamiyati katta bo'lib, u o'quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda erkin muloqot qilish kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirilgan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda asosiy e'tibor o'quvchining bilimni o'zlashtirishi emas, balki uni amaliy faoliyatda qo'llay olishiga qaratiladi. Xorijiy til o'qitishda bu, avvalo, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni anglatadi. Kommunikativ kompetensiya o'z ichiga lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarni qamrab oladi.

BOSHLANG'ICH SINFGA ESTETIK TASAVVURLARNI ART-PEDAGOGIKA ORQALI RIVOJLANTIRISH: TA'LIMDAGI YANGI TENDENSIYALAR <i>Xidirova Nilufar Shuxratovna</i>	358
---	-----

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ <i>Жалилов Зарафшон Бахиуллаевич, Сирожитдинова Фируза Замировна</i> ,.....	363
---	-----

"THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING ECOLOGICAL CULTURE AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS" <i>Jalilov Zarafshon Baxshullayevich, Sirojiddinova Firuza Zamirovna</i>	363
--	-----

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA TARBIYAVIY FAOLIYAT JARAYONI VA UNING BOLA RIVOJIGA TA'SIRI <i>Jabborova Shaxina G'affor qizi</i>	366
--	-----

ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI <i>Hasanov Asliddin Azamat o'g'li</i>	370
--	-----

3-SHO'BA: DIDAKTIK JARAYON MAZMUNNI BOYITISHDA XALQARO TA'LIM PARADIGMALARI VA ULARNING MOHIYATI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA KIMYO FANIDAN UYGA VAZIFALARNI TASHKIL QILISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI <i>Jamolova Nodirabegim Jobir qizi</i>	374
--	-----

XALQARO TA'LIM PARADIGMALARI INTEGRATSIYASI ORQALI DIDAKTIK JARAYONNI RIVOJLANTIRISH <i>Usmonova Oydin Sherali qizi</i>	377
--	-----

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИ ДАВРЛАРИ АСОСИДА ДАРС ЎТИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ МУСТАКИЛ ИШЛАШ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНИШИ <i>М.Қ. Рўзиев</i>	380
--	-----

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA LOYIHAVIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI <i>Haydarqulova Mahliyo Zafarovna</i>	383
--	-----

KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA XORIJIY TIL O'QITISHDA DIDAKTIK JARAYONNI MODERNIZATSIYA QILISH <i>Qodirova Nilufarxon Zokir qizi</i>	387
--	-----

TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARIDA O'Z-O'ZINI BOSHQARISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH <i>To'ymurodova Dilnoza Dilmurodovna</i>	391
--	-----

INKLYUZIV TA'LIMDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK FAOLIYATIDA METODIK YONDASHUVLAR <i>G.Samiyeva</i>	392
---	-----

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ САМОУПРАВЛЕНИЯ У ВОСПИТАННИКОВ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ <i>Тўймуродова Дилноза Дилмуродовна</i>	394
--	-----

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA YOZMA NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI VA MEKANIZMLARI <i>Rajabova Zebiniso Anvarovna</i>	397
---	-----